



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

SUVNI TEJAYDIGAN TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH (QIZIRIQ TUMAN MISOLIDA)

Ishboyev Parda Usan o'g'li

magistrant

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

e-mail: shboyevparda@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunga kelib, butun dunyoda suv tanqisligi kuzatilmoqda. Ushbu maqoladada muammoni bartaraf etish, oldini olish uchun butun dunyoda va O'zbekistonda olib borilayotgan ishlar xususida to'xtalgan, suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etish Qiziriq tumani miqyosida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: suvni tejaydigan texnologiya, sun'iy sug'orish inshootlari, hosildorlik, suvni tejash.

INTRODUCTION OF WATER-SAVING TECHNOLOGIES (ON THE EXAMPLE OF KIZIRIK DISTRICT)

Ishboyev Parda

Annotation: Today water shortage are observed all over the world. A study of the work being done around the world and in Uzbekistan to eliminate the problem, Kizirik district wide studying.

Keywords: water-saving technology, artificial irrigation facilities, productivity, water saving.

Kirish. Suv tejaydigan texnologiyalar dunyo tarjibasi va O'zbekistonda. Ushbu suvni tejaydigan qurilmalar dunyoda sug'oriladigan maydoni katta bo'lgan 20 davlatda mavjud. Bu mamlakatlarning sug'oriladigan yer maydonlari 219,5 mln gektarni tashkil etadi. Dastlabki o'rinlarda Hindiston va Xitoy egallaydi. O'zbekiston bu borada esa 12-o'rinni egallab, jami sug'oriladigan yer maydoni 4,3 mln gektarga teng. Qiziriq tumanida esa sug'oriladigan yer maydoni 29 ming 598 gektar tashkil etadi.

Jahon davlatlariga sug'oriladigan yerlar holatini ularning xususiyatlarini va qo'llanilayotgan irrigatsiya tizimlari bo'yicha tahlilini, takomillashgan va zamonaviy texnik darajadagi irrigatsiya tizimlari rivojlangan mamlakatlar AQSH, Kanada, Xitoy, Isroil, Italiya, Rossiya davlatlarida ekanligini ko'rsatadi.

Bugungi kunga kelib O'zbekiston sug'oriladigan maydonlarda nisbatan suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish ko'lami bo'yicha dunyoda 16-o'ringa chiqdi. Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida esa 1-o'rinda. So'nggi besh yil ichida yurtimizda 643-ming gektar maydonda tejamkor texnologiyalar joriy qilingan. O'tgan 2021-yilning o'zida suvni tejaydigan texnologiyalar 433 ming gektar maydonda joriy etildi

va ularning umumiy ko‘satkichlari umumiy sug‘oriladigan maydonlarning 17 foizni tashkil qildi.

Prezidentning tomonidan 2022-yil 1-martda qabul qilingan “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan bu borada yangi tadbirlar belgilandi.

Mamlakatimiz aholisining deyarli 60 foizi qishloqda yashaydi va xalqimizning oziq-ovqatga bolgan ehtiyoji bilan bog‘liq. Dunyo bo‘yicha haroratning yil sayin kotarilib borishi, iqlim o‘zgarishi va boshqa omillar ta‘sirida bizning vohalarimizda ham suv tanqisligi yildan yilga oshib bormoqda. Shuning uchun suvdan oqilona va samarali foydalanish, tejamkorlik, suvni ortiqcha ishlatmaslik masalalari turibdi.

Qarorga muvofiq, yil davomida suv resurslarini samarali boshqarish, suvni tejaydigan va raqamli texnologiyalar joriy qilish, irrigatsiya va meleratsiya ishlari, agrotexnik tadbirlari hisobidan 10 mlrd metr kub, shu jumladan, sug‘orish mavsumida 8 mlrd metr kub suv tejiladi.

2022-yilda 260 ming gektarga suvni tejaydigan texnologiyalarga, shundan 230 ming gektarga tomchilatib, 28 ming gektarga yomg‘irilatib, 2 ming gektar yerni diskret sug‘orish tizimiga o‘tish hamda 218 ming gektar qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari lazerli usul orqali tekislash belgilangan.

Suvni tejoychi texnologiya evaziga 3 mlrd metr kub, irrigatsiya tarmoqlarini tamirlash va tiklash hisobiga esa 3,1 mlrd metr kub, ATK va raqamli texnologiyalarni joriy etish, kam suv talab qiladigan ekinlar turini ko‘paytirish, sholini intensiv usulda ekish natijasida 0,9 mlrd metr kub suv tejiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘liligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 11-dekabrda PQ-4919-son hamda viloyat hokimining 2020-yil 15-dekabrda Q-676-son va tuman hokimining 2020-yil 18-dekabrda K-1476-sonli qarori ijrosini taminlash maqsadida tuman qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish uchun 3500 gektar maydonda tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etish rejalashtirilgan. Bu ishlarni amalga oshirish ishlari bosqichma-bosqich olib borilmoqda.

Qiziriq tumani Surxondaryo viloyatining markaziy qismida joylashgan. Tuman hududi 330 km kv bo‘lib, shundan 27 ming gektar yeri qishloq xo‘jaligi uchun foydalaniladi. 2020-yilning dekabr oyidan Qiziriq tumanida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida “Qiziriq tekstil cotton” klaster mas‘uliyati cheklangan jamiyati tashkil etildi.

Tumanning asosiy suv manbayi Surxondaryo bo‘lib, Janubiy Surxon suv ombori hisoblanadi. Janubiy Surxon suv omboridan Sherobod kanali orqali sug‘oriladi. Kanal tumanning shimoliy qismidan o‘tgan, janubiy qismidan esa Zang kanali o‘tgan, bu kanallar tumanning asosiy suv manbasi hisoblanadi. Surxondaryo suv sathining

kamayishi, haroratning ko'tarilishi bilan tumanning suvga bo'lgan ehtiyoji ortib bormoqda. Tuman aholisi ko'payishi sababli qishloq xo'jaligi mahsulotlariga ehtiyoj ortib bormoqda. Tuman aholisining asosiy qismi qishloqlarda yashaganligi sababli oqar suvdan foydalanishning yangi usullariga ehtiyoj ortib bormoqda.

Zamonaviy intensiv qishloq xo'jaligini tashkil etish uchun tumanda 2021-yilda paxta ekilgan maydon 7684 gektar bo'lib, shundan hammasi 743 gektar tomchilatib sug'orish ishlari yo'lga qo'yilgan.

Jami paxta ekilgan maydonlarning 10 foiz tomchilatib sug'orish bilan sug'oriladi. Yana 1150 gektar yerni tomchilatib sug'orish texnologiyasi qurilmoqda. Tumanning har 200 gektar maydoniga quriladigan 1 donadan jami 9 dona suv olish hovuzi va nasos stansiya joylari aniqlanib, qazish ishlari olib borilgan bo'lib, 4 ta tomchilatib sug'orish stansiyasi ishga tushirildi. Bular quyidagilar:

1. Paxtakor hududida 163 gektar, jami paxta ekilgan maydon 601,9 gektar.
2. Buyuk Surxonobod hududida 200 gektar, jami 414 gektar.
3. Yangiyo'l hududida 196 gektar, jami 461 gektar.
4. Oqjar hududida 184 gektar, jami 484,4 gektarga teng.

2022-yilda "SURXON COTTON TEXTILE CLUSTER" BAAning "BEAT TREDE F.Z.E." kompaniyasi bilan 1 606 000 AQSH dollarlik tomchilatib sug'orish texnologiyasini yetkazib berish bo'yicha shartnoma tuzilgan.

Jami 730 gektar yerga tomchilatib sug'orish texnologiyasi qurilishi rejada tutilgan bo'lib, tumanning uchta hududida qurilish ishlari olib borilmoqda bular quyidagilar.

1. Zafarobod hududi – 240 gektar.
2. Zafarobod hududi – 220 gektar.
3. Gilambob hududi – 270 gektar.

Joriy yilda yana "SURXON COTTON TEXTILE CLUSTER" korxonasi, Isroilning "IRRI-ALTAL LTD" kompaniyasi bilan 2 237 895 AQSH dollarlik tomchilatib sug'orish texnologiyasini yetkazib berish bo'yicha shartnoma tuzilgan.

Shartnomaga ko'ra, tumanda 990 gektar yerga tomchilatib sug'oish texnologiyasi o'rnatiladi. Jami 4 ta hududda bular:

1. Istiqlol hududi – 213,55 gektar.
2. Sariq Zilol hududi – 306,72 gektar.
3. Sariq Zilol-2 hududi – 195,85 gektar.
4. Yangiobod hududi – 273,88 gektar.

Qurilayotgan nasos stansiyalari nasoslari 50 yilga mo'jallangan bo'lib, bir yilda tuman uchun 82,1 mln metr kub suv iqtisod qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezidentining 2022- yil 1-mart kuni qabul qilingan “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 2022 yil 2- mart.
2. Xalq so‘zi gazetasi.
3. O‘zbekiston Qishloq va Suv xo‘jaligi jurnali 2022 yil 3 mart.
4. Qiziriq tuman „Taraqqiyot” gazetasi.